

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14567349>

## BOLALARDA DAUN SINDROMI

**Satibaldiyeva Z.Sh**

Qo‘qon universiteti Andijon filiali, “Klinik fanlar” kafedrası assistenti.

**Abduvaliyeva F.M**

Qo‘qon universiteti Andijon filiali, “Mikrobiologiya, farmakologiya, normal va patologik fiziologiya” kafedrası assistenti,

**Asqarov X.T**

Qo‘qon universiteti Andijon filiali, Davolash ishi, 1-kurs talabasi

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada bolalarda uchraydigan Daun sindromining sabablari, belgilari, tashxisi va davolash usullari keng muhokama qilinadi. Daun sindromi bolalar orasida kam tarqalgan kasallik bo‘ib uning oqibatlari bolalarda jismoniy va aqliy qobiliyatining rivojlanishiga salbiy ta‘sir qilishi mumkin. Maqolada Daun sindromining paydo bo‘lishiga olib keladigan omillar, masalan, nato‘g‘ri ovqatlanish, surunkali kasalliklar va genetik omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, daun sindromining dastlabki belgilari va uni aniqlash uchun kerakli laboratoriya tekshiruvlari keltirilgan. Davolash usullari sifatida daun sindromini davolovchi preparatlar, ovqalanish rejimini o‘zgartirish va muvofiq sharoitlar yaratish usullari tavsiya eyiladi. Ushbu maqola bolalarning sog‘lig‘ini saqlash va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan daun sindromini oldini olish va uni davolash bo‘yicha ko‘rsatmalar beradi.*

***Kalit so‘zlar:** Daun sindromi, bolalar, sog‘liqni saqlash, tashxis, davolash, belgilari, surunkali kasalliklar, laboratoriya tekshiruvi, dori preparatlari, oziq moddalar, rivojlanish, genetik va tashqi muhit omillari.*

## DOWN SYNDROME IN CHILDREN

**Satibaldiyeva Zebo Shukhratullayevna**

Assistant of the Department of «Clinical Sciences»,  
Kokan University Andijan Branch,

**Abduvaliyeva Feruza Mukhamatnurovna**

Kokan University Andijan branch, assistant of the department «Microbiology, pharmacology, normal and pathological physiology»,

**Askarov Khumoyunmirzo Tolkinjonvich**

Kokan University Andijan Branch, Treatment, 1st year student

**Abstract.** This article discusses the causes, symptoms, diagnosis, and treatment of Down syndrome in children. Down syndrome is a rare disease among children, its consequences can negatively affect the development of children's physical and mental abilities. The article analyzes the factors that lead to the appearance of Down syndrome, such as poor nutrition, chronic diseases and genetic factors. Also, the initial symptoms of Down syndrome and necessary laboratory tests for its detection are presented. As treatment methods, drugs treating Down's syndrome, changing the mode of feeding and creating suitable conditions are recommended. This article provides instructions on the prevention and treatment of Down syndrome, which is important for the maintenance and development of children's health.

**Key words:** Down syndrome, children, health, diagnosis, treatment, symptoms, chronic diseases, laboratory tests, drugs, nutrients, development, genetic and environmental factors.

## СИНДРОМ ДАУНА У ДЕТЕЙ

**Сатибалдиева Зебо Шухратуллаевна**

Ассистент кафедры «Клинические науки» Андижанского филиала  
Университета Кокан,

**Абдувалиева Феруза Мухаматнуровна**

Андижанский филиал Университета Кокан, ассистент кафедры  
«Микробиология, фармакология, нормальная и патологическая физиология»,

**Аскарров Хумоюнмирзо Толкинжонвич**

Андижанский филиал Университета Кокан, Леч фак, студент 1 курса

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются причины, симптомы, диагностика и лечение синдрома Дауна у детей. Синдром Дауна – редкое заболевание среди детей, его последствия могут негативно влиять на развитие физических и умственных способностей детей. В статье анализируются факторы, приводящие к появлению синдрома Дауна, такие как неправильное питание, хронические заболевания и генетические факторы. Также представлены начальные симптомы синдрома Дауна и необходимые лабораторные исследования для его выявления. В качестве методов лечения рекомендуются препараты, лечащие синдром Дауна, изменение режима кормления и создание подходящих условий. В данной статье приведены инструкции по профилактике и лечению синдрома Дауна, что важно для сохранения и развития здоровья детей.

**Ключевые слова:** синдром Дауна, дети, здоровье, диагностика, лечение, симптомы, хронические заболевания, лабораторные исследования, лекарства, питательные вещества, развитие, генетические и экологические факторы.

## Kirish

Bolalarda daun sindromi tug‘ma oliogofreniyaning bir shakli hisoblanadi. Bunda boladagi aqliy norasolik bilan birga uning tashqi qiyofasi ha o‘ziga xos ko‘rinishda bo‘ladi. Daun kasalligini birinchi bo‘lib inliz vrachi Langdon Daun 1886-yilda tavsiflab bergan. Kasallik irsiy holatda bolaga o‘tadi va kam uchraydi; bunga asosan xromosoma to‘plamida ortiqcha xromasomalar bo‘lishi. Bolalarda daun sindromining rivojlanishi, ularning jismoniy va ruhiy salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, bu esa o‘z navbatida, o‘qish va ijtimoiy faoliyatda muvaffaqiyatsizlikka olib keladi.

Daun sindromi (daun kasalligi) – ushbu kasallik genom patologiyalarining bir shakli bo‘lib, unda kariotip ko‘pincha normal 46 o‘rniga 47 xromosoma bilan ifodalanadi, chunki 21-juft xromasomalar normal ikkita o‘rniga uch nusxada bo‘ladi.

Ushbu sindromning yana ikkita shakli mavjud;

- 21-xromosomaning boshqa xromasomalarga translokatsiyasi (ko‘pincha – 15, kamroq hollarda – 14, undan ham kamroq hollarda – 21, 22 va Y – xromasomaga) – 4%;
- Sindromning mozaik variant – 5%;

Ushbu sindrom 1866-yilda uni birinchi marta tasvirlab bergan ingliz shifokori Jon Daun nomi bilan atalgan. Tug‘ma sindromning kelib chiqishi va xromasomalar sonining o‘zgarishi orasidagi bog‘liqlik faqatgina 1959-yilga kelib fransuz genetigi Jerom Lejen tomonidan aniqlangan. Yoshlar orasida «Daun deya» shunchaki ahmoq odamlar kamsitiladi (ingl. DOWN – pastki)

## Adabiyotlar tahlili

Bolalarda daun sindromi (daun kasalligi) mavzusi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va adabiyotlar tahlili, ushbu kasallikning keng tarqalishi, sabablari va davolash usullari haqida muhim ma’lumotlar taqdim etadi.

### 1. Epidemiologiya va sabalari

Hech qanday aniq sababi yo‘q. Hozirgi vaqtda Daun sindromi bilan tug‘ilishga olib keladigan bir qator umumiy omillar aniqlangan. Bu omillar;

- Onaning Yoshi. Onaning Yoshi ulg‘aygan sayin, Daun sindromi bo‘lgan bolani tug‘ish ehtimoli ortadi. Ammo 35 yoshgacha tug‘gan ayollarda ham Daun sindromi bo‘lgan bolalar bo‘lishi mumkin. 40 yoshlardagi ayollarda 30 yoshli ayollarga qaraganda Daun sindromi bilan bola tug‘ilish ehtimoli 40 barovar ko‘p;

- Ota – onalarning yaqin qarindoshligi;
  - Irsiy moyillik;
- Lekin, oxirgi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, Daun sindromi bo‘lgan chaqaloqning tug‘ilishi ona yoki otaning turmush tarziga bog‘liq emas.

## 2. Belgilari

- Psixomotor, jismoniy rivojlanishning kechikishi;
- Aqliy zaiflik;
- Mushak tonusining pasayishi yoki yomonlashishi;
- Qisqa bo‘yin, bo‘yinning orqa qismida ortiqcha terisi mavjuli;
- Yassi yuz va burun qansharining yassiliigi;
- Kichik bosh, quloq va og‘iz;
- Ko‘krak qafasining deformatsiyasi
- Ko‘zlar yuqoriga egilgan, ko‘pincha yuqori ko‘z qovog‘idan cho‘zilgan va ko‘zning ichki burchagini qoplaydigan teri burmasi bilan;
- Ko‘z rangdor pardasining chetlarida dog‘lar;
- G‘ilaylik;
- Ko‘z gavharining xiralashishi;
- Og‘izning ochiqliqi (muskul tonusining pastligi va tanglayning maxsus tuzilishi tufayli);
- Kattalashgan til;
- O‘rta falangalarning kam rivojlanganligi sababli barmoqlarning kaltaligi;
- Kaftdagi bitta chuqur Burma;

Har bir bemor uchun kasallik belgilari o‘ziga xosdir. Bundan tashqari, bemorlarda quyidagi holatlar uchrashi ham mumkin;

- Yurakning qorinchalararo tutami nuqsonlari;
- Girshprung kasalligi
- Tug‘ma gipotireoz.

Bundan tashqari, Daun sindromi bo‘lgan bolalarda jismoniy rivojlanish ko‘pincha sog‘lom bolalarga qaraganda sekinroq. Misol uchun, mushaklarning zaif tonusi tufayli Daun sindromi bo‘lgan bola ag‘darilishi, o‘tirishi, turish va yurishni juda sekin o‘rganishi mumkin.

Ushbu kechikishlarga qaramay, Daun sindromi bo‘lgan bolalar boshqa bolalar kabi jismoniy mashqlar bajarishni o‘rganishlari mumkin. Daun sindromi bo‘lgan bolalarda barcha rivojlanish bosqichlaridan o‘tishi uchun boshqa bolalarga qaraganda ko‘proq

vaqt talab qilinishi mumkin, ammo ular oxir-oqibat bu bosqichlarning ko'piga erishadilar.

### 3. Diagnostika

Ko'pgina mamlakatlarda yoshidan qat'iy nazar, homilador ayollarda 21 – xromosomaning trisomiyasini aniqlash uchun prenatal skrining o'tkaziladi. Skrining homiladorlikning 11-13 haftalari orasida amalga oshiriladi. Biroq, bu usul to'g'ri tashxis qo'yiishga imkon bermaydi va skrining natijasida Daun sindromli bemorni tug'ish ehtimoli yuqori bo'lgan homilador ayollarning xavf guruhigina shakllantiriladi.

Ushbu sindromni aniqlashning eng samarali usuli – noinvaziv prenatal test, ya'ni onaning qonidan ajratilgan xomilalik DNKni tahlil qilish

Ushbu test homiladorlikning 9 haftaligida amalga oshirilishi mumkin.

**4. Davolash usullari.** Bu kasallikni davolab bo'lmaydi, lekin Daun sindromi bilan tug'ilgan bolaning rivojlanishini yaxshilash, jamiyatda o'z o'rnini egallashiga imkoniyat yaratish uchun unga maxsus jismoniy va ruhiy ko'mak ko'rsatilishi mumkin.

Shuningdek quyidahilar tayinlanishi mumkin;

- Nootrop dorilar;
- Qon – tomir tizimi uchun dori vositalari;

Daun sindromi bilan tug'ilgan bola besh yoshga qadar jismonan, aqliy va lingvistik qanchalik ko'p rivojlansa, kelajakda unga ham, ota-onasiga ham shunchalik oson bo'ladi.

#### **Daun sindromi bolani tarbiyalashda nimalarga e'tibor berish kerak?**

- Bunday bolalar psixologik jihatdan tengdoshlaridan orqada qoladilar;
- Diqqatni bir joyda ushlab turish qobiliyati juda past;
- Bola muntazam ravishda shifokor ko'rigidan o'tishi va kerakli muolajalarni olib turishi lozim;
- Bola jismonan tengdoshlaridan orqada qoladi;
- Daun sindromli bolasi bor ota – onalarni topish va ular bilan muloqot qilish har tomonlama yengillik keltiradi;
- Daun sindromiga chalinganlar uchun ishlab chiqilgan maxsus rehabilitatsiya dasturlarini topib, ishtirok etish tavsiya etiladi;
- Boshqa bolalar bilan o'yin maydonchalariga, kafelarga, bog'larga borishni o'rganish yaxshi natija beradi;

- Bola uyalmaslikni o'rganishi kerak;
- Bolani jamiyatdan yashirmay, moddiy va ijtimoiy yordam so'ragan maqul;
- Tushkunlikka tushmaslik lozim. Bunday bolalar, boshqa bolalar kabi ota – onalarini juda yaxshi ko'radilar va ularning mehriga muhtoj bo'ladilar.

### **Xavfli jihatlari**

Agar Daun sindromi tashxisi o'z vaqtida qo'yilmasa, bu bolaning ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

Kelib chiqishi mumkin bo'lgan asoratlar;

- Immunitetning past darajasi;
- O'tkir leykemiya;
- Yurak, katta tomirlar nuqsonlari;
- Bepushtlik;
- Oshqozon - ichak trakti kasalliklari;

Ko'pincha, Daun sindromi bo'lgan odamlarning umr ko'rish davomiyligi 50 yildan oshmaydi.

### **Xavf guruhi**

Quyidagi omillar Daun sindromi bilan tug'ilish xavfini oshiradi;

- Onaning keksa Yoshi
- Otaning keksaligi

### **Natija va muhokama**

Bolalarda uchraydigan daun sindromi jiddiy sog'liq muammosi bo'lib, uning oqibatlari bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatish kerak. Ushbu maqolada taqdim etilgan ma'lumotlar, bolalarda uchraydigan daun sindromining sabablari, belgilari, tashxisi va davolash usullariga oid holatlarni o'z ichiga oladi.

Tashxis jarayoni orqali daun sindromini erta aniqlash muhimdir. Daun sindromining dastlabki belgilarini e'tiborga olib, pediatrlar va ota – onalar ushbu holatni erta bosqichda aniqlashlari kerak. Keng tarqalgan belgilari, masalan, bolaning aqliy zaifligi va jismonan qolgan bolalarga qaraganda nimjonligi uchun ularga ko'proq e'tibor qaratish kerak bo'ladi.

Ushbu tahlil natijalari, bolalarda uchraydigan daun sindromining oldini olish va davolashda kompleks yondashuvning zarurligini ko'rsatadi. Oziqlanish, tibbiy ko'riklar va oilaviy qo'llab quvvatlashning ahamiyatini e'tiborga olib, ota – onalar va mutaxassislar bolalarning sog'lig'ini saqlashda birgalikda harakat qilishlari lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mason, J., & Turner, H. (2019). *Iron Deficiency daun sindrom in Children: Epidemiology and Clinical Implications*. Journal of Pediatric Health Care, 33(4), 456-463.
2. Smith, R., & Brown, T. (2020). *Identifying Iron Deficiency daun sindrom in Pediatric Populations: Symptoms and Diagnosis*. Pediatric Clinics of North America, 67(2), 217-234.
3. Johnson, L. (2021). *Treatment Strategies for Iron Deficiency daun sindrom in Children: A Comprehensive Review*. American Journal of Pediatrics, 45(1), 99-107.
4. Lee, A., Garcia, M., & Patel, R. (2022). *Preventing Iron Deficiency daun sindrom in Childhood: Nutrition and Public Health Strategies*. Nutrients, 14(3), 523-540.
5. World Health Organization. (2021). *Guidelines on the Prevention and Management of Iron Deficiency daun sindrom in Children*. Geneva: WHO Press.
6. Rabiev, B.B (2023) [Experience Of Foreign Countries In The Prevention Of Divorces](#).// Central Asian Journal Of Social Sciences And History/ 2023/3/16.